

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

NURMEDOV NURMUXAMMED AXMED O‘G‘LI

**QO‘L JANGI BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNI MUSOBAQALARGA
TAYYORLASH SAMARADORLIGI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Nurmedov Nurmuxammed Axmed o‘g‘li

Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligi 3

Нурмедов Нурмухаммед Ахмед угли

Эффективность подготовки занимающихся рукопашным боем к соревнованиям..... 27

Nurmedov Nurmuhammed Akhmed ugli

The effectiveness of preparation of hand to hand combaters for competitions 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

NURMEDOV NURMUXAMMED AXMED O‘G‘LI

**QO‘L JANGI BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNI MUSOBAQALARGA
TAYYORLASH SAMARADORLIGI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining B2024.4.PhD/Ped8884 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xo‘jamkeldiyev G‘afur Sulton o‘g‘li pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponenlar:	Gaziyev Shukurjon Shuxrat o‘g‘li pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Anashov Valixan Djumaxonovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Yetakchi tashkilot:	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.:(0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, “E bino, 3-qavat 309-autoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “__” _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi p.f.d.(DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida soʻnggi yillarda malakali sportchilarni tayyorlashning samarali tizimi **tobora takomillashib bormoqda**. Qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilar mashgʻulotlarini samarali tashkil etish, koʻp yillik tayyorgarlik jarayonini toʻgʻri rejalashtirish va musobaqalarda yuqori darajadagi istiqbolli sportchilarni tayyorlash keng qamrovli jarayon hisoblanmoqda. Xalqaro sport arenalarida raqobat muhiti tobora murakkablashib borayotgani va yirik musobaqalarda barqaror, yuqori sport natijalarini qoʻlga kiritish zarurati hamda jahon miqyosidagi musobaqalarda barqaror sport natijalarini qoʻlga kiritishning keskinlashib borayotganligi, mutaxassis va murabbiylar oldiga muhim masalalarni qoʻyadi. Shuning uchun qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarni samarali tayyorlash jarayonida ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish orqali musobaqalarda yuqori natijadorligini belgilab beruvchi zamonaviy mashgʻulot vosita va **uslublarini amaliyotga tatbiq etish maʼlum ahamiyat kasb etmoqda**.

Jahon amaliyotida qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarni koʻp yillik tayyorgarligi tizimini tuzish, ularning mahorati va maxsus ish qobiliyatini oshirish, oʻquv-mashgʻulot jarayonining uslubiy yoʻnalishini tanlash, umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan oqilona foydalanish muammolari boʻyicha koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Qoʻl jangi sport turi boʻyicha musobaqalashuv jarayonining jadallashishi hamda oʻsmir sportchilarning shugʻullanuvchilarni samarali tayyorlashda soha olimlari va murabbiylari oldiga zamonaviy vositalar va usullarni ratsionalizatsiya qilish talabini qoʻymoqda. Bu sport bilan shugʻullanuvchilarni musobaqa oldi tayyorgarligini samarali tashkil qilish hamda ularning bellashuv faoliyatidagi shiddatini hisobga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish dolzarb va **yechimi talab qilinayotgan muammolardan biri boʻlib qolmoqda**.

Respublikamizda Qoʻl jangi sport turini aholi, ayniqsa, yoshlar, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari oʻrtasida yanada ommalashtirish, soha uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Qoʻl jangi boʻyicha milliy terma jamoa aʼzolarining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirokini taʼminlash, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini taʼminlash”¹ kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirda, sport amaliyotida koʻp yillik tayyorgarlikning maʼqul tizimini ishlab chiqish, musobaqa faoliyatida yuqori natijalarni qoʻlga kiritish va oʻquv-mashgʻulot jarayonini bellashuv faoliyati talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etmoqda. Bu mashgʻulotlarga samarali vosita va uslublarni kiritish muammosini koʻlamdorligidan darak beradi, qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy jihatlardan biri

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi PQ-287-son “Qoʻl jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori.

bo‘lib, musobaqalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishning muhim vazifasi hisoblanadi. Sportchilar maxsus jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil etish hamda aynan kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarining ilmiy o‘rganilmaganligi soha olimlari va mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2022-yil 20-iyundagi PQ-287-son «Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda qo‘l jangi sport turini aholi, ayniqsa, yoshlar, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari o‘rtasida ommaviyligini oshirish hamda sohaga doir bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning: “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga bog‘liq holda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda jang san‘atlari bo‘yicha dasturlar, qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchi sportchi-talabalarning kuchchidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirishda maxsus mashqlar kompleksini ishlab chiqish, harbiy ta‘lim muassasalarida maxsus tayyorgarlik va texnik tayyorgarlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha F.A.Kerimov, L.P.Yugay, R.D.Xalmuxamedov, R.S.Salomov, N.A.Tastanov, O.J.Dadaboev, **Sh.Sh.Gaziyev, V.D.Anashov**² va boshqa mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan sohaga oid turli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tomonidan yakkakurash sport mashg‘ulotlarida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish, qo‘l jangi sport turida taktik rejalarini turli usullarda qo‘llash uslubiyatini ishlab chiqish hamda qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilar musobaqa oldi tayyorgarligini shakllantirish masalalari bo‘yicha L.P.Matveev, A.A.Karelin, V.F.Boyko, V.N.Platonov, G.S.Tumanyan, Yu.V.Verxoshanskiy, J.K.Xolodov, V.M.Zasiorskiy³ va boshqalarning tadqiqotlarida keng o‘rganilgan.

² Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти: Дарслик. – Т., 2001. – 285 б.; Югай Л.П. Основы дзюдо. Т., 2005. - 133 с.; Халмухамедов Р.Д. Технология подготовка единоборцев на этапах годового цикла. Диссертация на соискание ученой степен доктора педагогических наук. Т., 2009.- 300 с.; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. II-jild. Darslik. – Т., 2015.– 287 б.; Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. – Т., “Sano-Standart”, 2017. – 480 б.; Дадабоев О.Ж. Дзюдоchиларнинг кўп йиллик тайёргарлик концепцияси. Фан доктори (DSc) дисс... Ч.: 2021. – 348 б.

³ Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999. – 316 с., Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. Монография.

Xorijiy davlatlarda yakkakurash sport turlariga sportchilarni tayyorlash model tavsiflarini joriy qilish bo'yicha M.Smith, to'g'ri milliy jang san'ati tizimlarida uzoq vaqt davomida ishlab chiqilgan, optimal darajani yaratishga qaratilgan shakllar, usullar va vositalar kompleksi hamda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi 9-11 yoshli bolalarni harbiy qo'l jangi sport turiga tayyorlashda sport seksiyalarida harbiy vositalaridan foydalanish bo'yicha J.Lacour, L.Messonier, M.Bourdin, qo'l jangi mashg'ulotlarida maxsus jismoniy va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha B.R.McKay, D.H.Paterson, J.M.Kowalchuk⁴ va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, sport amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy qilinayotgan bir qator muhim tadqiqot ishlarida qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarning o'quv-mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ularni jismoniy tayyorgarligini va maxsus jismoniy qobiliyatlarini hamda kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan. Qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni tayyorlash tizimida maxsus jismoniy tayyorgarlik oshirish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqod muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasining 34,2-bandi: "Yakka kurash sport ta'lim muassasalari mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sportchilarning musobaqalarga tayyorlash jarayonida qo'l jangi sportchilarni texnik mahoratini oshirishga yo'naltirilgan samarali metodikani ishlab chiqish;

o'quv-mashg'ulot jarayonida qo'l jangi bo'yicha shug'ullanuvchilarning integral tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish;

//Новосибирск, 2002. – 480 с.; Бойко В.Ф., Данько Г.В. Физическая подготовка борцов. Киев, Олимпийская литература, 2004. – С. 150-158.; Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004. - 808 с.; Туманян Г.С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов: Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр "Академия", 2006.–591 с. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2007. - 236 с., Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2008. – 204 с.; Зацюрский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания / М: Спорт, 2019 – 200 с.

⁴ Smith M. (2008) Anaerobic Metabolism Characteristics of Female Boxers in Different Competitive Levels / M. Smith //Journal of Shenyang Institute of Physical Education, Vol. 27, Issue 2, pp. 11-15.; Lacour J. (2009) Physiological correlates of performance. Lacour J, Messonnier L., Bourdin M. Case study. Eur. J Appl Physiol.- № 106. -p. 407-413; McKay B.R. (2009) Effect of short-term high-intensity interval training vs. continuous training on O2 uptake kinetics, muscle deoxygenation, and exercise performance, McKay B.R., Paterson D.H., Kowalchuk J.M., J Appl Physiol.,107. -pp.128-138

Raqibning kuchli va zaif tomonlarini inobatga olgan holda, sportchilarni jismoniy tayyorgarlikka yoʻnaltirilgan individual mashgʻulot metodikasini ishlab chiqish;

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarini tezlik sifatini rivojlantirish uchun kutilmagan signal va hujumlarga javoban sportchining reaksiya tezligini oshirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpogʻiston respublikasi Nukus shahridagi №1-sonli va №2-sonli sport maktabi qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning oʻquv-mashgʻulot va musobaqa faoliyati jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini oʻquv mashgʻulot bosqichidagi qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy va uslubiy adabiyotlarni oʻrganish va tahlil qilish; ilgʻor tajribalarni tahlil va sintez qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistik kabi uslubdan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oʻquv mashgʻulot bosqichidagi qoʻl jangchilarining musobaqa faoliyatidagi taktik harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida jangovor holatda turish, ritm intensivligi, trayektoriya, zarbalar, harakat shiddatini oʻzgaruvchan pozitsiyalarda asosiy zarbalarni toʻrt turdagi masofalarda joylangan holda bajarish hisobiga texnik usullarni mutanosiblikda bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

qoʻl jangchilarining zarba kuchi va tezligini oshirish maqsadida qoʻl, yoq va tanaga qoʻshimcha ogʻirliklar yordamida plyometrik mashqlar, turli tezlanishlarda yugurishlar, sparing hamda simulyatsiya bellashuvlari, blok qoʻyish, qarshi hujum kabi kombinatsiyalardan foydalanish hisobiga turli vazndagi sportchilarni integral tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan;

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning bellashuvdagi tik va parter holatidagi himoya harakatlarni bajarishda raqibga nisbatan propriozeptiv boshqaruv zarbalarni berish, statik va dinamik barqarorlikdan chiqarish, tik turgan holarda tashlash texnik harakatlari bajarish, boʻgʻish hamda ogʻirqli usullardan musobaqa oldi siklida foydalanish hisobiga qarshi hujum harakatlarini samarali bajarish imkoniyatlari oshirilgan;

qoʻl jangchilarning hujum harakatlariga qarshi javob qaytarish jarayonlarida kutilmagan va yuqori intensivlikdagi zarbalarga muvozanatni yoʻqotmasdan, adekvat javob zarbalarini berishda moro, qoʻl-oyoq koordinatsiyasiga taʼsir qiluvchi reflekslarni tarbiyalash hisobiga zarba kuchi va yoʻnalishini aniq belgilash imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilar kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish boʻyicha qoʻllashga doir tabaqalashtirilgan uslubiyati ishlab chiqilgan;

oʻquv-mashgʻulot jarayonida qoʻl jangi boʻyicha shugʻullanuvchilarning uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish boʻyicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlarini hisobga olgan holda maxsus musobaqa tayyorgarligini samarali rejalashtirish boʻyicha meʼyorlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchli, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning xulosalari bilan asoslanadi, tajriba ishlarining representativligi va olingan natijalarning matematik statistika usuli bilan qayta ishlanganligi bilan kafolatlanadi. Natijalar kompyuter texnologiyalari yordamida to'g'ri qayta ishlangan. Dissertatsiyada keltirilgan taklif va amaliy tavsiyalarning ishonchliligi qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni kuch va tezkor-kuch tayyorgarligi nazariyasi va metodikasining konseptual muammolarini hal qilish zarurati bilan asoslanadi.

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda tayyorlash tizimini ilmiy hamda amaliy jihatdan yanada boyitishga, zamonaviy sport amaliyotida qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni tayyorlashning maqbul shart-sharoitlarida musobaqa faoliyatiga asoslangan mashg'ulot jarayonini aniq rejalashtirish hamda qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarning maxsus musobaqa tayyorgarligini belgilash bo'yicha tabaqalashtirilgan uslubiyatni va me'yorlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlashda texnik elementlarini (tik turish, harakat ritmi trayektoriya, zarbalar, harakat shiddati) xususiyatlariga asosan jismoniy sifatlarni rivojlantirish, qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, o'quv-mashg'ulot faoliyatini ilmiy tahlil qilish hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda kuch va tezkor-kuch mashqlarining model xususiyatlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Tadqiqotning natijalarini joriy etilishi. qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

o'quv mashg'ulot bosqichidagi qo'l jangchilarining musobaqa faoliyatidagi taktik harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida jangovor holatda turish, ritm intensivligi, trayektoriya, zarbalar, harakat shiddatini o'zgaruvchan pozitsiyalarda asosiy zarbalarni to'rt turdagi masofalarda joylangan holda bajarish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus shahar 1-sonli va 2-sonli sport maktabining qo'l jangi o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 20-fevral 01-03/924-son ma'lumotnoma). Natijada, tajriba guruhi sinaluvchilarning bo'y balandligi 14,3 % ga yaxshilangan;

qo'l jangchilarining zarba kuchi va tezligini oshirish maqsadida qo'l, yoq va tanaga qo'shimcha og'irliklar yordamida plyometrik mashqlar, turli tezlanishlarda yugurishlar, sparing hamda simulyatsiya bellashuvlari, blok qo'yish, qarshi hujum kabi kombinatsiyalardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus shahar 2-sonli sport maktabining qo'l jangi o'quv-mashg'ulotlariga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 20-fevral 01-03/924-son ma'lumotnoma). Natijada, chalqancha yotgan holda gavdani oldinga ko'tarish mashqida 15,7 % ga o'sgan;

qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarning bellashuvdagi tik va parter holatidagi himoya harakatlarni bajarishda raqibga nisbatan propriozeptiv boshqaruv zarbalarni

berish, statik va dinamik barqarorlikdan chiqarish, tik turgan holarda tashlash texnik harakatlari bajarish, bo'g'ish hamda og'riqli usullardan musobaqa oldi siklida foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Buxoro viloyati yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining qo'l jangi o'quv-mashg'ulotlariga tadbiiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 20-fevral 01-03/924-son ma'lumotnoma). Natijada, tajriba guruhi sportchilarining 1-daqiqa davomida chalqancha uloqtirish 12,10 % ga yaxshilangan;

qo'l jangichilarning hujum harakatlariga qarshi javob qaytarish jarayonlarida kutilmagan va yuqori intensivlikdagi zarbalarga muvozanatni yo'qotmasdan, adekvat javob zarbalarini berishda moro, qo'l-oyoq koordinatsiyasiga ta'sir qiluvchi reflekslarni tarbiyalash bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon shahar Qo'l jangi markazining qo'l jangi o'quv-mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 20-fevral 01-03/924-son ma'lumotnoma). Natijada, tajriba guruhi sportchilarining "Mavashi geri" usulida to'ldirma to'pni 1 daqiqa davomida tepish 8,59 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnallarda 1 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya 128 sahifa kompyuter matnidan iborat bo'lib, kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliy tavsiya, adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Ish 19 ta jadval va 8 ta rasmdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Qo'l jangi mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning o'rganilganlik holati va nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobda qo'l jangi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish xususiyatlari, qo'l jangi mashg'ulotlarini tashkil qilish xususiyatlari, qo'l jangi sportiga xos bo'lgan texnik elementlarni tahlil qilish, qo'l jangi sport turida integral tayyorgarlikni shakllantirish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Qo'l jangi sport tizimlarida uzoq vaqt davomida ishlab chiqilgan, optimal darajani yaratishga qaratilgan qimmatli shakllar, usullar va vositalar mavjudligini ta'kidlashgan. Jismoniy rivojlanish va tayyorlik har tomonlama rivojlangan shaxs kurash usullarini o'zlashtirishga xos bo'lgan o'ziga xos fazilatlarni rivojlantirish

bilan birga muvofiqlikda qo'llashni tavsiya qilishgan. Boshqa tomondan, bu shakl, vosita va usullardan foydalanish yo'llari yetarlicha o'rganilmagan va ilmiy asoslanmagan. Ular tabiatan tizimli murakkab emas va maxsus muvofiqlashtirish mashg'ulotlari orqali optimal vosita stereotipini shakllantirishdan tashqari, boshqa qobiliyatlarni, shu jumladan axloqiy va irodaviy fazilatlar va vatanparvarlik kompleksini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi. Barkamol shaxsni tarbiyalashning zarur elementi bu qo'l jangi vositalardan foydalanishni tavsiya qilishgan (A.A. Borisov va D.V.Chernov).

S.M.Ashkinzi, A.N.Kochergin, V.V.Kuzminlarning ko'p yillik ilmiy tadqiqotlarida harbiy va ichki ishlardagi xodimlarning qo'l jangi mashg'ulotlarida psixologik tayyorgarlikni o'rni katta ekanligini ta'kidlashgan. Shu bilan birga qo'l jangida ishlatiladigan atamalar, tovushlarning talaffuzi, mohiyatiga ko'ra, ma'lum bir tartibda kodlangan tasvir-to'lqinli tuzilmalarni yaratish dunyoni adekvat idrok etish uchun psixikani qayta tiklashga, shuningdek, psixikaning ma'lum fazilatlarini rivojlantirish orqali kerakli jismoniy holatga erishishga imkon berishini aytib o'tishgan. Psixologik tayyorgarlik kasbiy jihatdan zarur qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ushbu maqsadlar uchun bir qator kanonik matnlar ishlatilgan. Shubhasiz, o'ziga xos ohangga ega jangovar qo'shiqlar ham xuddi shunday maqsadlarda ishlatilsa shug'ullanuvchilarning jismoniy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy-amaliy tadqiqotlarida aniqlangan.

Qo'l jang san'ati tizimlari bo'yicha mutaxassislar tomonidan milliy tarixiy tajriba va an'analarni o'rganish, ular yaqin kelajakda jismoniy tarbiya o'qituvchisi, murabbiy sifatida faoliyat yuritishi va bu tajribani yosh avlodga yetkazishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatilgan qarama-qarshiliklar quyidagi farazni ilgari surishga imkon berdi: milliy jang san'ati tizimlari tajribasini tarixni tahlili va zamonaviy uslubiy adabiyotlarni o'rganish milliy-tarixiy tajribani integratsiyalashning pedagogik texnologiyasini ishlab chiqishga imkon beradi deb taxmin qilindi. Jismoniy tarbiya fanidan pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalariga jangovar sport turlarini o'rgatishda qo'l jangi mashg'ulotlarida maxsus tayyorgarlikni rivojlantirishga e'tibor qaratish tahlillarimiz davomida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlarning usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar davomida qo'llanilgan ilmiy tadqiqot uslublari va ularning tashkil qilinishi yoritilgan: ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, antropometriya, YuQS shiddat zonalari hamda matematik-statistika tahlil qilish yordamida qayta ishlash usullari bayon etilgan. Shuningdek, 3 bosqichda o'tkazilgan tadqiqotni tashkil etish to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan:

O'rganish 2021-yilda Nukus shahridagi 1-sonli sport maktabi bazasida bo'lib o'tdi. Tajriba uchun biz sportchilarni ikki guruhga ajratdik - har birida 15 nafar sportchilar jalb qilindi. Nazorat guruhidan farqli o'laroq, tajriba guruhdagi bolalardan kuch va chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mashg'ulot sikli davomida qo'shimcha mashqlar majmuasidan foydalandik. O'quv va o'quv mashg'ulotlari haftada 6 marta o'tkazildi. Har bir mashg'ulot 80-90 daqiqa davom etdi. Barcha yosh sportchilar bir necha bor shahar, viloyat, viloyatlararo va butun Respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etishdi.

Tadqiqot bosqichlari:

1. Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiy manbalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalar tahlili, dissertatsiya yozish uchun materiallar tanlash (2021-yil sentyabr – dekabr).

2. 1-sonli sport maktabidagi mashg'ulotlar jarayonining mavjud usullari va dasturlarini tahlil qilish va o'z tadqiqotimiz uchun tadqiqot metodikasini ishlab chiqish (2022-yil fevral-aprel).

3. Ta'sis etuvchi va shakllantiruvchi pedagogik tadqiqot o'tkazish (2022-yil may – 2023-yil dekabr).

4. Tadqiqot natijalarini matematik qayta ishlash, natijalarni taqdim etish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, dissertatsiyani tayyorlash (2024 yil fevral-may).

Dissertatsiyaning **“Qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni tayyorgarlik ko'rsatkichlarini pedagogik tajribada asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobida qo'l jang sport turiga o'rgatishda integral modelini qo'llash xususiyatlari, qo'l jangi bo'yicha sportchilarni tayyorlash dasturining tuzilishi va mazmuni, qo'l jang sporti bo'yicha maxsus muvofiqlashtirish mashg'ulotlari metodologiyasi, qo'l jangini o'rgatishda vatanparvarlik tarbiyasi metodikasi xususiyatlari o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqotimizga tajriba guruhiga 15 nafar va nazorat guruhimizga 15 nafar respondentlar jalb qilindi hamda antropometrik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tajriba guruhi sportchilarining tadqiqot oldi antropometrik ko'rsatkichlarini jumladan bo'y balandligi, vazn og'irligi, qo'l va oyoqlar uzunligi hamda ko'krak qafasi aylanasi ko'rsatkichlari aniqlandi.

Biz tadqiqotimiz davomida tajriba va nazorat guruhi sportchilarining tadqiqotdan oldingi antropometrik ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qildik (1-rasmga qarang). Rasmga asosan tadqiqot boshida bo'y balandligi o'rtacha tajriba guruhida 168,07 sm, nazorat guruhida esa 169,73 sm, vazn og'irligi tajriba guruhida 59,60 kgni, nazorat guruhida esa 58,13 kg ni tashkil etdi. Qo'llar uzunligi tajriba guruhida 72,20 sm, nazorat guruhida 71.13 smni, oyoqlar uzunligi esa tajriba guruh sinaluvchilarida 89.27 sm va nazorat guruh sinaluvchilarida 90.47 sm. Ko'krak qafasi aylanasi tinch holatda tajriba guruhida 86.40 smni, nazorat guruhida 86.47 sm ekanligi aniqlandi va tahlil qilindi.

Shu bilan birga sportchilarning texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlashga ham e'tibor qaratdik.

Unga ko'ra tajriba guruhi sportchilarining tadqiqot oldi texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari chalqancha uloqtirish, mavashi geri usulida to'ldirma qop tepish, to'ldirma qop 30 soniya davomida urish va turnikda tortilish kabi mezonlardan foydalandik.

Biz tadqiqotimiz davomida tajriba va nazorat guruhi sportchilarining tadqiqotdan oldingi texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qildik. Rasmga asosan tadqiqot boshida 1-daqiqa davomida chalqancha uloqtirish o'rtacha tajriba guruhida 21,6 marta, nazorat guruhida esa 20,53 marta, mavashi geri usulida 1 daqiqa davomida to'ldirma to'p tepish tajriba guruhida o'rtacha 46,2 marta, nazorat guruhida 47,00 martani tashkil etdi. 30 soniya davomida to'ldirma qop urish tajriba guruhida 45,12 marta, nazorat guruhida 43,73 martani, turnikda tortilishda esa tajriba guruh sinaluvchilarida 14,53 marta va nazorat guruh sinaluvchilarida 15,33 marta tortilgani aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar ya'ni tajriba va nazorat guruh

sinaluvchilarining tadqiqotdan oldin texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkichlar ya'ni tajriba va nazorat guruh sinaluvchilarining tadqiqotdan oldin antropometrik ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi tadqiqotimiz boshlash uchun sabab bo'ldi.

Qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarining texnik tayyorgarligini oshirish uchun qo'l jangi elementlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Bunda jangovor turish elementlari, harakat ritmi, trayektoriya, qo'l va oyoqlardagi zarbalar, raqibga yoki sherikka uzoq, yaqin, o'rta masofada turish kabi elementlar maxsus vositalar orqali rivojlantirildi. Shu bilan birga egiluvchanlik koordinatsiya va chaqqonlik yetakchi sifatlarini ham rivojlantirishga e'tibor qaratildi (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Qo'l jangi bilan shug'ullanuvchilarni texnik tayyorgarligini oshirish dasturi

T/r	Qo'l jangning elementlari	Texnik elementlarning mazmuni
1	Jangovar holatda turish:	Bir qator dinamik, o'zgaruvchan pozitsiyalarni ifodalaydi; fiksatsiya; zarba berish uchun asosiy pozitsiya sifatida qaraladi, keyin esa harakat; asosiy pozitsiya sportchi tanasi tuzilishining biomexanik xususiyatlari va harakat impulsining uzatilishi bilan belgilanadi.
2	Harakat ritmi:	Nafas olish mashqlari bilan muvofiqlikda amalga oshiriladi. Saralangan vositalar, qisman yoki to'liq tuzilgan tizimlarda harakatlar ritmi jangchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Ikkala holatda ham harakat ritmini va uning nafas olish bilan bog'liq rivojlantiriladi.
3	Traektoriya:	Raqibga nisbatan qarama qarshi usillar, Aylanma usillar shaklli, spiral, jangning boshidan oxirigacha cheksiz harakat tufayli yo'nalishi vaziyatga qarab o'zgaradi.
4	Masofalar:	A. Uzoq B. O'rtacha C. Yarim yaqin V. Yaqin masofada raqibga zarba berishlar
5	Zarbalar: A. Qo'llar B. Oyoqlar	A. Ular qo'l va oyoqlarning turli qismlari bilan turli maqsadlarga qo'llaniladi, asosan yumshoq va aksincha qattiq; kuchli zarbalar mavjudligi; zarbalar texnikaning rivojlanmagan elementi emas, zarbaning istalgan bosqichida bitta zarbani boshqasiga o'zgartirib zarba berish; har qanday pozitsiyadan zarba berish, navbatdagi harakatni davom ettirish. B. Tepish zarbalari, ya'ni zarbadan keyin harakat davom etadi, oyoqlar bilan chekinish kuzatilmaydi; zarba paytida tizza bo'g'imida harakat bo'lmaydi yoki kichik harakatlar kuzatiladi. Kuchli zarbalar kamdan-kam qo'llaniladi. Harakatni amalga oshirish uchun standart pozitsiyalar ishlatilmaydi, ya'ni ular navbatdagi harakatlarning davomi hisoblanadi.

1-jadval davomi

6	Ta'sir traektoriyasi	Loop shaklidagi, ellipsoidal, sakkiz shakllar; harakatning to'liqiga o'xshash impulsining davomi va tugashi, yo'nalishda - ichkariga, tashqariga, o'zidan uzoqda, jangning boshidan oxirigacha davom ettirish.
7	Harakatning tavsifi	Harakatlarning aniqligi to'g'riligiga sekin va o'ta sekin tezlikda bajarish orqali erishiladi, chunki yuqori aniqlikdagi harakatlar o'zlashtiriladi, tezlik oshadi; uzluksiz, silliq, oqimli, to'liqiga o'xshash harakatlar amalga oshiriladi
8	Harakat texnikasi	Yurish, yugurish, sakrash, salto, umbaloq oshish harakatlari bajartiriladi
9	Texnik harakatlar	Moslashuvchan jangovar sxemani tashkil etuvchi almashtiriladigan mashqlar majmuasi; zarba berishning o'ziga xos usuli jangchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, harakatning umumiy holatini saqlab qoladi.
10	Harakat shiddati	Tana qismlarini vertikal ravishda qat'iy yo'naltirish bilan harakatni tashkil etish tufayli minimal energiya sarfi prinsipi; raqibni minimal vaqt ichida, kichik texnik vositalar bilan mag'lub etishi mumkin
11	<p>Maxsus jismoniy sifatlar:</p> <p>A. Egiluvchanlik</p> <p>B. Ikki qo'l bilan bajariladigan zarbalar seriyasi</p> <p>V. Koordinatsion qobiliyatni ustuvorligi (qo'l va oyoqlarning o'zaro bog'liqligi, muvofiqlashtirilgan harakatlari, mushaklararo muvofiqlashtirish, hissiy, mushak tizimlar).</p>	<p>A. Butun tana bo'ylab harakat impulslarining to'liqinsimon uzatilishi, hujumdan tashqari tananing bo'shashishi va hujum paytida bir zumda amalga oshiriladi;</p> <p>B. Ikkala qo'l va oyoqni teng nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi, bu chap va o'ng qo'llarni vaqt va makonni eng aniq shaxslarga yaqinlashtiradi;</p> <p>V. Miyaning yuqori darajadagi o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi, bu esa bir vaqtning o'zida harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan zarba kuchlari foydalanish qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi. Bir qator ko'rsatkichlarning (tezkor-kuch, kuch, reaksiya tezligi va boshqalar) yaxshilanishiga olib keladigan mushaklar, sensorli analizatorlar va mushak tizimlarining o'zaro ta'siri bilan ifodalanadi.</p>

Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni texnik tayyorgarligini rivojlantirishda texnik elementlar orqali turli xil masofalardan raqibga zarba berish harakatlaridan ta’sir qilish etish trayektoriyasida aniqlash orqali harakat ritmi nafas olish mashqlari bilan muvofiqlikda bajarildi. Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni qo‘l va oyoq zarbalar texnikasiga o‘rgatishda harakatlar shiddati ham inobatga olindi. Raqibni minimal vaqt ichida kichik texnik vositalar bilan mag‘ub etish uchun maxsus jismoniy sifatlar ham rivojlantirildi.

Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda boshlang‘ich, asosiy tayyorlov, musobaqa oldi, musobaqa va tiklovchi tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot vosita va usullarni qo‘llanildi. Buning natijasida qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning tayyorgarlik turlari ko‘rsatkichlari bazasi ham, harakat tajribasi ham kengaytirib borildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorgarlik turlari ko‘rsatkichlari bazasi

Bosqich	Tayyorlov jarayonlari	Asosiy maqsad
Boshlang‘ich bosqich	Jismoniy va psixologik tayyorgarlik, texnik asoslar	Asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish
Asosiy tayyorgarlik bosqichi	Texnik va taktik mahoratni rivojlantirish, maxsus mashg‘ulotlar	Musobaqalarga tayyorlash
Musobaqa oldi bosqichi	Chidamlilik, tezlik va reaksiyani oshirish, sparringlar	Yuqori sport formaga o‘tish
Musobaqa bosqichi	Musobaqada taktik yondashuv va ruhiy barqarorlikni saqlash	Yuqori natija ko‘rsatish
Tiklanish bosqichi	Reabilitatsiya, tiklovchi mashqlar va psixologik barqarorlik	Organizmni qayta tiklash va keyingi musobaqalarga tayyorlash

Izoh: qo‘l jangchilarning texnik tayyorgarligi bosqichli tarzda, zarba texnikasi va jismoniy sifatlarni rivojlantirish orqali yoritilgan.

Tadqiqotimiz davomida tayyorgarlik turlari va tiklovchi vositalarni qo‘l jangi mashg‘ulotlari jarayoniga ta’sirini o‘rganganimizda jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlik darajasiga zarba usullari, nafas olish mashqlari, jang san’ati va tiklovchi mashg‘ulotlari kabi maxsus vositalar sezilarli darajada ta’sir qildi. Chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanani mashg‘ulotga moslashish qobiliyatini va funksional holatini yaxshilashga qaratilgan.

Tadqiqotimiz davomida qo‘l jangi sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika tayyorgarlik jarayonini samarali rejalashtirish va qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini oshirishga yordam beradi. Tayyorgarlik turlari bo‘yicha mashg‘ulot vositalari saralandi hamda ularni me‘yorlari ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang).

**Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni musobaqalarga
integral tayyorlash metodikasi**


Bosqich	Mashg‘ulot yo‘nalishi	Maqsad	Mashg‘ulot turi	Davomiyligi	Tavsiyalar
Maxsus jismoniy tayyorgarlik	Kardio va chidamlilik	Yurak tizimini mustahkamlash, umumiy chidamlilikni oshirish	Yugurish, veloergometr, suzish, (intervallar)	4-6 hafta	Har kuni 30-60 daqiqa, YUQS nazorati
Tezkor-kuch	Portlovchi kuch	Zarba kuchini va tezkorlikni oshirish	Og‘irlik bilan mashqlar, plyometrika, tezlik bilan yugurishlar, arqon sakrash	4-6 hafta	Kuch va tezlikni oshirish uchun 2-3 kun kuch mashqlari, 2-3 kun tezlik mashqlari
Texnik tayyorgarlik	Zarba va himoya texnikasi	Hujum zarbalari va himoya usullarini takomillashtirish	Kombinatsiyalar, oyoq harakatlari, blok va qarshi hujumlar	6-8 hafta	Individual va juftlikda bajariladigan mashqlar
Taktik tayyorgarlik	Jang strategiyasi va taktikasi	Raqibni tahlil qilish, raqibga moslashish va taktik sxemalar	Sparring, video tahlil, simulyatsiya janglari	6-8 hafta	Har xil raqiblarga qarshi mashq qilish, jang sharoitlari yaratish
Psixologik tayyorgarlik	Stressga chidamlilik va motivatsiya	Musobaqa oldidan psixologik holatni mustahkamlash	Vizualizatsiya, nafas mashqlari, meditatsiya	4-6 hafta	Musobaqa sharoitlarini takrorlash, diqqatni jamlash mashqlari
Ovqatlanish ratsioni va tiklanish	Optimal ovqatlanish va dam olish	Sportchining energiyasini saqlash va tiklanish jarayonlarini tezlashtirish	Protein, uglevod va yog‘ balansini saqlash, suv ichish tartibi	Butun tayyorgarlik davri	Musobaqa oldidan og‘ir ovqatlarni cheklash, vitamin va minerallar yetarlicha iste‘mol qilish
Musobaqaoldi tayyorgarlik va adaptatsiya	Musobaqaga tayyor holatga yetkazish	Optimal jismoniy va psixologik tayyorgarlik	Yengil sparringlar, maxsus mashqlar, taktik rejani takrorlash	1-2 hafta	Mashg‘ulot yuklamasini kamaytirish, tiklanishga e‘tibor berish

Izoh: Integral tayyorlov metodikasi sportchini har tomonlama rivojlantirib, musobaqada yuqori natijaga erishish uchun zarur asosni yaratadi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika qo‘l janggi sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik turlarini kompleks yondashish orqali rivojlantirish imkonini berdi. Ushbu metodikaning davomiyligi 8 haftani o‘z ichiga olgan bo‘lib, tayyorgarlik turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda sportchilarni ovqatlanish ratsioni, dam olishi va tashqi ta’sirga moslashishi doimiy nazorat qilib borildi. Hafta davomida qo‘l janggi sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda kardio va chidamlilik mashqlaridan foydalanildi. Bu esa, sportchilarning umumiy jismoniy chidamliligini oshirdi. Shu bilan birga, kuch va tezlikni rivojlantirish zarba samaradorligini oshirib, jangdagi reaksiya tezligini yaxshilaydi. Bundan tashqari sportchilarni texnik va taktik tayyorgarligiga ham e’tibor qaratildi. Jumladan texnik tayyorgarligini rivojlantirishda sportchilar zarba va himoya texnikasini takomillashtirib, jang sharoitlariga moslashadi. Taktik mashg‘ulotlar esa raqibning uslubini tahlil qilish va jang strategiyasini shakllantirish imkonini berdi. Psixologik tayyorgarlik esa, mashg‘ulot va musobaqalar davomidagi stresslarga chidamlilik va natijaga erishish uchun motivatsiya berildi. Bu esa, musobaqa oldidan sportchining psixologik barqarorligini oshirdi. Meditatsiya usulidan foydalanishda sportchilarda ongni tinchlantirish, diqqatni jamlashga yordam beradi. U sportchilarning ichki xotirjamligini oshirish, stressni kamaytirish va fikrlarni tartibga solish hamda tez qaror qabul qilib javob qaytarishga yordam beradi. Vizualizatsiya orqali esa jang vaqtida diqqatni jamlash va strategik fikrlash mustahkamlanadi. Bundan tashqari sportchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasida ularning ovqatlanish ratsioni va organizm funksiyalar faoliyatini tiklanish jarayonlariga e’tibor qaratildi. Tog‘ri ovqatlanish va dam olish sportchining mashg‘ulotlar davomida quvvatini saqlash va tez tiklanishiga yordam berdi. Musobaqa oldidan ratsional ovqatlanish va vitaminlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Musobaqoldi tayyorgarlik va sportchilarni musobaqa sharoitiga moslashishini ham inobatga olindi. Bunda yakuniy bosqich sportchini jismoniy va ruhiy jihatdan musobaqaga to‘liq tayyorlashga qaratildi. Mashg‘ulot yuklamasi kamaytirilib, tiklanish jarayoniga e’tibor berildi.

Ushbu metodika sportchilarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, bosqichma-bosqich tayyorgarlik turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oshirishni ta’minlaydi. Jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik va taktik jihatlarning ham o‘rganilishi sportchining musobaqada muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini oshiradi. Tayyorgarlik jarayonida muvozanatni saqlash, dam olish va to‘g‘ri ovqatlanishga e’tibor qaratish ham muhimligi sababli mashg‘ulot metodikasiga kiritildi. Bu metodika qo‘l janggi sportchilari uchun musobaqaga puxta tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.


Qo‘l janggi bilan shug‘ullanuvchi sportchilar uchun musobaqalarga tayyorgarlik jarayonining foizli taqsimoti ishlab chiqildi va diagramma ko‘rinishida taqdim etildi. Ushbu diagramma har bir tayyorgarlik yo‘nalishining umumiy jarayondagi foiz nisbati aks ettirilgan. Ushbu sport turning xususiyatlari inobatga olib maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlikka eng katta foizlar taqsimlandi. Shu bilan birga, kuch, tezlik va taktik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun 15 % dan taqsimlandi. Qolgan turlarga esa 10 % dan ajratildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Musobaqaga tayyorgarlik bosqichlarining foizli taqsimoti

Ushbu diagramma har bir tayyorgarlik turining umumiy tayyorgarlik jarayonidagi ulushini ko'rsatadi. Maxsus jismoniy tayyorgarlikka 20% ajratilib, chidamlilik va umumiy jismoniy tayyorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Kuch va tezlik qobiliyatini rivojlantirishga 15% taqsimlandi. Bunda zarba kuchi va tezlikni oshirishga erishildi. Texnik tayyorgarlik 20% taqsimlandi. Bunda asosan, zarbalar, himoya va harakat usullarini takomillashtirildi. Taktik tayyorgarlikka esa 15% ajratildi. Mashg'ulot va musobaqa jarayonida jang strategiyasini ishlab chiqish va qisqa vaqtda moslashish imkonini berdi. Psixologik tayyorgarlik 10% bo'lib, ushbu mashg'ulotlarda stressga chidamlilik va musobaqada yuqori natijaga erishish uchun motivatsiya berib borildi. Tayyorgarlik turlaridan tashqari qo'l janggi sport turi bilan shug'ullanuvchilarni ovqatlanish ratsioni va tiklanishi uchun 10% taqsimlandi. Bunda energiya taqsimoti va tiklanish jarayonini optimallashtirishga erishildi. Musobaqoldi tayyorgarlik va sportchilarni tashqi ta'sirga adaptatsiya qilishga qaratilgan mashg'ulotlarga 10% taqsimlandi. Yuqorida keltirilgan foiz nisbatlarida qo'l janggi bilan shug'ullanuvchilarni musobaqalarga tizimli tayyorlash imkoniyatlari oshirildi.

Qo'l janggi bo'yicha yuqori mutaxsislarni va istiqbolli sportchilarni tayyorlashga e'tibor qaratildi. Qo'l janggi bo'yicha texnik usullarni oddiydan – murakkabga qarab ketma-ketlikda bajarilish tartibini shakllantirishda sportchilarni texnik va jismoniy holatiga qarab yuklamalar taqsimlandi. Qo'l jangida texnik usullarni bajarilishi tik turgan holatda qo'l va oyoq zarbalari, himoya va qarshi hujumlar kombinatsiyalari ishlab chiqildi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Qo‘l jangi mashg‘ulotlarida tayyorgarlik turlarini tizimli rivojlantirish moduli

Biz tomonimizdan tadqiqotlarimiz davomida qo‘l jangi sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni musobaqalarda natijaga erishish uchun yuzaga keladigan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va psixologik imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanildi. Shu bilan birga qo‘l jangi sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni yetkachi jismoniy sifatlarini rivojlantirishga ham e‘tibor qaratildi. Ushbu metodika orqali hujumkor taktika, qarshi hujum, faol himoyalash, texnik harakatni amalga oshirish, jangni o‘tkazish, chorlash uslubi, manevrlarni qo‘llash orqali yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari oshirildi. Tadqiqot davomida modeldan foydalanish orqali tiklovchi, va sog‘lomlashtiruvchi komponentlari orqali qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlash imkoniyatlari kengaytirildi. Mashg‘ulotlarda ushbu modelni qo‘llash orqali shug‘ullanuvchilarning salomatlik darajasida ijobiy o‘zgarishlar hamda sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishdi (4-jadvalga qarang).

Qo'l jangi sportchilari uchun reflekslarni rivojlantirish metodikasi

Refleks turi	Refleksning ta'siri	Mashq turi	Natijaviy ta'sir	Sportchi uchun ahamiyati
Qochish refleksi	Ushbu refleks kutilmagan signallar va hujumlarga javoban sportchining reaksiya tezligini belgilaydi. Noto'g'ri rivojlanganida haddan tashqari sezgirlik yoki qo'rquvga olib kelishi mumkin	Kutilmagan hujumlarga javoban takroriy mashqlar: qosh qismiga taqiladigan ipli maxsus kapto'lar	1) Taktill sezgi (tegish orqali his qilish) yaxshilanadi va sportchi zarbalar oldidan tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. 2) Kutilmagan tovush va zarbalarga muvozanatni yo'qotmasdan adekvat javob berish shakllanadi	1) Sportchi musobaqada ortiqcha stress va qo'rquvdan xoli bo'ladi. 2) Raqibning harakatlarini tezda tahlil qilish va javob berish qobiliyati shakllanadi
Moro refleksi (haddan tashqari qo'rqish yoki raqib zarbasi bilan bog'liq refleksi)	Agar bu refleks noto'g'ri rivojlangan bo'lsa, sportchi ortiqcha qo'rqoq yoki aksincha tajovuzkor bo'lib qolishi mumkin. Ikkala holatda ham stress darajasi yuqori bo'lib, adrenal gormonining ko'p ishlab chiqarilishi immunitetga salbiy ta'sir ko'rsatadi.	Muvozanat mashqlari, zarba berish va kutilmagan zarbalarga javob qaytarish mashqlari, nafas mashqlari, turgan joyda yerga yoki osmonga qarab aylanishlar va xujumga o'tishlar	1) Vestibulyar (muvozanat) tizimi mustahkamlanadi. 2) Jang paytida kutilmagan holatlarga nisbatan muvozanat va stabil reaksiya shakllanadi.	1) Sportchi ortiqcha stress yoki qo'rquvga berilmaydi. 2) Tanadagi mushaklarning haddan tashqari zo'riqishi kamayadi va harakatlar erkin amalga oshiriladi.
